

**Mexribonu ADASHALIYEVA,**

*Namangan davlat pedagogika instituti talabasi*

*E-mail: mirzo1979@umail.uz*

*Tel: (91) 292 75 55*

*NamMTI dotsenti, p.fff.d A.Isaqov taqrizi asosida*

## **LOGOPEDIK O'YINLARNING AHAMIYATI**

Annotatsiya

Ushbu maqolada maxsus pedagogikaning asosiy bo'limi hisoblangan logopediyaning dolzARB masalalari, nutq va undagi kamchiliklar, bolalar nutqining shakllanishi va rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf qilish, logopedik o'yinlar, nutq kamchiliklarini bartaraf qilishda logopedik o'yinlardan foydalanish hamda ularning asosiy jihatlari to'g'risida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogika, maxsus pedagogika, defektologiya, logopediya, bolalar, nuqson, mashq, logopedik o'yinlar.

## **ЗНАЧЕНИЕ ЛОГОПЕДИЧЕСКИХ ИГР**

Аннотация

В данной статье рассматриваются актуальные вопросы логопедии, которая считается основным отделом специальной педагогики, о речи и ее недостатках, устранении дефектов формирования и развития детской речи, логопедических играх, использовании логопедических игр в устраниТЬ речевые нарушения и объяснить их основные аспекты.

**Ключевые слова:** Педагогика, специальная педагогика, дефектология, логопедия, дети, дефект, занятие, логопедические игры.

## **THE IMPORTANCE OF LOGOPEDIC GAMES**

Annotation

In this article, the current issues of speech therapy, which is considered the main department of special pedagogy, about speech and its deficiencies, elimination of defects in the formation and development of children's speech, speech therapy games, the use of speech therapy games to eliminate speech disorders, and their main aspects explained.

**Key words:** Pedagogy, special pedagogy, defectology, speech therapy, children, defect, exercise, speech therapy games.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarda ta'lIM sohasini rivojlantirishga, xususan maxsus pedagogika yo'nalishlarida yangi innovatsiya texnologiyalarni qo'llashga katta ahamiyat qaratilib, keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi 11 ta bob, 75 ta moddadan iborat "Ta'lIM to'g'risida"gi Qonunida ham uning huquqiy asoslari mustahkamlandi [1].

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy, aqliy hamda ruhiy jihatdan barkamol rivojlanib borishi ularning kelgusidagi faoliyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning har tomonlama komil inson ruhidagi topishlarida nutqning to'liq holda rivojlanishi juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. U asta-sekin rivojlanib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati o'yinlar bilan bog'liq bo'ladi. Sir emaski, o'yinlar orqali bolalarga har tomonlama keng ta'sir etish imkoniyati yuqori bo'ladi. Shu sababli, bolalarda nutqning to'liq shakllanishi va rivojlanishida logopedik o'yinlardan samarali foydalanish juda muhimdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Bolalarning keyingi hayoti, ularning olishi zarur bo'lgan bilimlari, malakalari va ko'nikmalarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni va ularning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish maxsus pedagogikaning asosiy bo'limi – logopediyaning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bunda logopedik o'yinlardan to'g'ri foydalanish lozim bo'ladi.

Bolalarda nutq masalasi, undagi ayrim nuqsonlar, nutq kamchiliklarni bartaraf qilishda logopedik o'yinlardan foydalanish bo'yicha maxsus pedagogika sohasidagi juda ko'plab olimlar izlanishlar olib borganlar. Mazkur olib borilgan tadqiqotlar natijalari ularning nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida, darslik, monografiya, risola, o'quv va uslubiy qo'llanmalarida o'z aksini topgan. Jumladan, xorijlik olimlardan Ye.A.Flerina, Ye.I.Tixeyeva, Ye.A.Arkin, N.M.Aksarina, A.P.Usova, D.V.Mendjeriskaya, T.A.Markova, Ye.V.Zvorigina, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, A.V.Zaporozes, D.B.ElkoniN, K.P.Bekker, M.Sovak, Ye.S.Almazova, G.A.Volkova, A.I.Maksakov, G.A.Gumakova, S.L.Novosyolova va boshqalarning asarlarida keng yoritib berilgan [7, 11, 12, 18].

Shuningdek, O'zbekistonda logopediya va uning asosiy masalalari R.T.Talipova, Z.M.Ahmedova, M.Yu.Ayupova, M.P.Hamidova, L.R.Mo'minova, D.A.Nurkeldiyeva, K.Shodiyeva, J.V.Xusanova, L.Nurmuhammedova kabi olimlarimizning ilmiy ishlari tадqiq etilgan [13, 14, 15, 16, 17, 19].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda logopediyaning asosiy vazifalari, bolalar nutqining rivojlanishi, nutq kamchiliklari, ularni bartaraf qilishda logopedik o'yinlarning ahamiyati masalalariga e'tibor qaratilgan. Bunda xorijiy mamlakatlarda, shuningdek O'zbekistonda bu borada amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari o'rganilgan va tahlii qilingan. Sohaga oid bir nechta me'yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, xususan, yangi tahrirdagi "Ta'lIM to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, mamlakatimizda inklyuziv ta'lIMning rivojlanishi uchun katta e'tibor qaratilayotganligi, sohada innovatsiya, raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi, raqobatbardosh malakal mutaxassislarining tayyorlanishi, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlari ko'laming kengayib borayotganligi alohida ahamiyatga ega.

**Tahlii va natijalar.** Nutq – tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shaklidir. Nutq deganda uning og'zaki (ovozi) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlar, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi [20].

Nutq bu kishilararo aloqa quroli, milliy boylik hamda tarbiya, maorif va ijodiyot uchun qudratli vositadir. Bolalar kattalarga taqlid qilish orqali tovush va so'zlarini to'g'ri talaffuz qilishga o'rganadilar. U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari bola shaxsining shakllanishiga, bilish faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin [2].

Har bir inson o'zining ichki hissiyotlarini nutq orqali bayon qiladi. Nutq esa barcha insonlarda mukammal tarzda shakllangan va rivojlangan bo'lavermaydi. Nutq kamchiliklarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish va uni oldini olish defektologiyaning barcha sohalari, shu jumladan logopediya uchun ham muhimdir.

Nutqdagi kamchiliklar bolalarning muomala qilishi va o'qishi uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq kamchiliklarni o'z-o'zidan mustaqil bartaraf etib bo'lmaydi. Nutq buzilishlari uzoq vaqt bartaraf etish ishlarni olib borishni talab etadi. Nutq kamchiliklariaga

ega bo'lgan bolalarga ta'sir etishni to'g'ri tashkil etish uchun nutq faoliyati buzilishining sabab va mohiyatini to'liq anglab yetish, nutqdagi kamchiliklarning paydo bo'lishi, nutq buzilishlarining rivojlanishi va uni bartaraf etish qonuniyatlarini bilib olish lozim. Bu esa ravon to'g'ri nutqning yuzaga chiqishiga, aniq maqsadni ko'zlab harakat qilishga va nutqdagi kamchiliklarni bartaraf qilishga xizmat qiladi [4, 5, 6].


Bolalar bog'chasingin ta'lim-tarbiya dasturida og'zaki nutqning, ya'ni lug'at boyligining oshib borishini, nutqning grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishini, tovush talaffuzini har tomonlama rivojlantirish nazarda tutildi. Ayrim bolalar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilibgina qolmay, balki ularni bir-biridan farqlay olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar mashg'ulotlarni o'zlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunday hollarda bolalar logopedik mashg'ulotlar yordamiga muhtoj bo'ladilar. Nutq kamchiliklarni bartaraf qilish uchun turli xil mashqlarni tartib bilan bexato bajarish va logopedik o'yinlardan foydalananish tavsidi etiladi.

O'yinlar qadim zamonalardan beri pedagoglar, psixologlar, faylasuflar, san'atshunos olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. O'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. Ba'zan o'yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga kelsa, ayrim hollarda bolaning kattalar mehnatiga taqlid qilishi orqali shakllanadi. Qisqacha atyganda, o'yin bolani mehnatga tayyorlaydi.

Logopedik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- nafasni rivojlantirishga oid o'yinlar;
- ovozni rivojlantiruvchi o'yinlar;
- eshituv diqqatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar;
- nutq apparati harakatini rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar;
- tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan o'yinlar;
- duduqlanishni bartaraf etishga oid o'yinlar;
- mayda qo'l matorikasini rivojlantirishga oid o'yinlar.

Logopedik o'yinlarning turlari quyidagi chizma orqali yanada yaqqol namoyon bo'ladı (1-rasm).



1-rasm. Logopedik o'yinlarning turlari

Logopedik o'yinlar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladi. Logopedik o'yinlar bolalarning nutqdagi nuqsonlarini bartaraf qilish, ularning jismoniy va aqliy jihatdan tarbiyalanishlari va barkamol inson bo'lib voyaga yetishishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'yin bolalarni rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, ya'ni o'yin jarayonida o'zar munosabat malakalari paydo bo'ladı, murakkab axloqiy his-tuyg'ular shakllana boradi. Har bir o'yin tarbiya vositasи bo'lib xizmat qiladi.

Mashhur pedagog va shifokor Ye.A.Arkin o'yin bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga katta ta'sir etadi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha o'yin ruhiy vitamindir.

Z.M.Ahmedova, M.Yu.Ayupova, M.P.Hamidovalarning "Logopedik o'yin" nomli darsliklarida quyidagi jumlalar keltirib o'tilgan: "O'yinlar o'zining mazmuni, xususiyati va tashkil qilinishiga ko'ra xilma xildir, shu sababli ularni ijodiy va qoidalı o'yinlarga ajratiladi. Ijodiy o'yinlarni bolalarning o'zlarini tomonidan o'ylab topiladi. Unda avvaldan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidalarini o'yin jarayonida bolalarning o'zlarini belgilaydi. Qoidalı o'yinlarning mazmuni va qoidalari kattalar tomonidan belgilanadi va nazorat qilinadi. Ular ko'proq musiqiy va harakatli o'yinlardir" [2].

Mashhur psixolog olim A.V.Zaporozes ham o'yinning ahamiyati haqida gapirar ekan, o'yinda tevarak-atrofdagi predmet va voqealarning umumlashgan tipik obrazlari uyushmasini yaratish qobiliyati rivojlanadi, keyin ular har xil qilib o'zgartiriladi. Bolaning kelajakdagи butun rivojlanishi uchun xayol yoki obrazning, tafakkurning bunday rivojlanish xususiyati bebafo qiymatga ega, deydi [3].

Logopedik o'yinlarni to'g'ri tanlash va bolalar bilan to'g'ri o'tkazish o'ta muhim ahamiyatga ega. O'yinni o'tkazish jarayonini shunday uyuştirish kerakki, unda bolalar o'rtoqlarcha munosabatda bo'lishlari, insonparvarlik, vatanparvarlik, ijtimoiy foydali mehnatga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganishlari lozim. O'yin bolalar uchun haqiqiy hayotdir. O'yin bolaning asosiy faoliyati hisoblanadi. To'g'ri tashkil qilingan o'yin nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda yangi so'zlarни o'rganish va ishlatish uchun ehtiyoj tug'diradi, ularning lug'at boyligini oshiradi.

O'yin mavzusini tanlashda mavzuning dastur talablariga muvofiqligini hamda tushunarligilagini hisobga olish lozim. O'yinlarning haddan tashqari turli-tuman bo'lishiga ortiqcha e'tibor berish ham to'g'ri emas. Ba'zan turli ta'limiy vazifalarni amalga oshirishda bitta o'yinni turli variantlarda o'tkazish ham maqsadga muvofiq bo'ladi va ijobjiy natijalar beradi.

Logopedik o'yinlarni tashkil etishda tarbiyaviy-tashkiliy ishlardan farqli ravishda, logopedning ishi o'yinlarni to'g'ri tashkil etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Logopedik o‘yinlarni o‘tkazishning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1. Bolalarni to‘g‘ri nafas olish va nafas chiqarishga o‘rgatish;
2. Ovozni rivojlantirish, past va baland ovozda gapirishga o‘rgatish;
3. Eshituv diqqati va nutq eshitishni rivojlantirish;
4. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish;
5. Bolalarda logopedik o‘yinlar orqali duduqlanishni bartaraf etish;
6. Bolalarda mayda qo‘l motorikasi hamda umumiy harakat motorikalarini rivojlantirish.

Maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining nutq buzilishlarining rivojlanishi va ularni bartaraf etish uchun bir necha xil o‘yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, “Kapalaklar uchayapti”, “Shamol esayapti”, “Kimning qushchasi uzoqqa uchadi”, “Quyosh va yomg‘ir”, “Mushuk va sichqon”, “Aks-sado”, “Shirin murabbo”, “Quvnoq tilcha”, “Do‘kon”, “Nasos”, “O‘z rasmagini top”, “Chivinlar”, “Poyezd” va “Asalarilar” kabi logopedik o‘yinlardan foydalanish mumkin.

Logopedik o‘yinlarni tashkil etish va bolalar bilan to‘g‘ri o‘tkazishda logoped turli nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalarning qobiliyatlarini ham inobatga olishi lozim bo‘ladi. Logopedik o‘yinlarni o‘tkazish orqali bolalarda nutqdan uyalmaslik, muloqotga kirishish, to‘g‘ri va ravon gapirish kabi xislatlar rivojlantirib boriladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bolalar nutqining rivojlanishida logopedik o‘yinlarning ahamiyati juda katta bo‘lib, logopedik o‘yinlarni o‘tkazish orqali nutqdan uyalmaslik, muloqotga kirishish, to‘g‘ri va ravon gapirish kabi xislatlar rivojlantirib boriladi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari ayrim xulosalarini chiqarish imkonini beradi:

- Maxsus pedagogikaning logopediya sohasi bolalarni psixik-pedagogik va klinik jihatdan o‘rganish, nuqson sabablarini aniqlash, pedagogik tasniflash va turlarga ajratish, maxsus ta`lim va tarbiya muassasalari sharoitida bolalarga individual muomala qilish, nuqsonli bolalarni jismoniy mehnatga tayyorlash kabi masalalarini ishlab chiqishdan iborat.

- Nutqdagi kamchiliklarni bolalarning muomala qilishi va o‘qishi uchun salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Nutq kamchiliklarni o‘zo‘zidan mustaqil bartaraf etib bo‘lmaydi. Nutq buzilishlari uzoq vaqt bartaraf etish ishlarini olib borishni talab etadi. Nutq kamchiliklariiga ega bo‘lgan bolalarga ta’sir etishni to‘g‘ri tashkil etish uchun nutq faoliyati buzilishining sabab va mohiyatini anglab yetish, nutqdagi kamchiliklarning paydo bo‘lishi, nutq buzilishlarining rivojlanishi va uni bartaraf etish qonuniyatlarini bilib olish kerak. Bu esa ravon to‘g‘ri nutqning yuzaga chiqishiga, aniq maqsadni ko‘zlab harakat qilishga va nutqdagi kamchiliklarni bartaraf qilishga xizmat qiladi.

- Logopedik o‘yinlarni to‘g‘ri tanlash va bolalar bilan to‘g‘ri o‘tkazish o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘yinni o‘tkazish jarayonini shunday uyuştirish kerakki, unda bolalar o‘rtoqlarcha munosabatda bo‘lishlari, insonparvarlik, vatanparvarlik, ijtimoiy foydali mehnatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni o‘rganishlari lozim. To‘g‘ri tashkil qilingan o‘yin nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarda yangi so‘zлarni o‘rganish va ishlatish uchun ehtiyoj tug‘diradi, ularning lug‘at boyligini oshiradi.

- Alohiда ta’lim ehtiyojlar bo‘lgan bolalar ham boshqa sog‘lom tengdoshlari singari bir xil sharoitda ta’lim olishlari kerak. Ular ham sog‘lom bolalar kabi qiynalmasdan maktabga borishlari, kelajakda o‘z yo‘llarini topishlari lozim.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
2. З.М.Ахмедова, М.Ю.Аюпова, М.П.Хамидова. Логопедик ўйин (дарслик). Тошкент, “Файласуфлар” нашриёти, 2013 йил.
3. Запорожец А.В. Избранные психологические труды: В 2-х т. М., 1986.
4. Adashaliyeva, M. ., Bekmirzayev, . M. ., & Bekmirzayeva, O. (2022). Training of qualified specialists is a challenging problem. Scientific Impulse, 1(3), 1104–1106. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1247>
5. Adashaliyeva, M., Bekmirzayev, M., & Bekmirzayeva, O. (2022). Training of qualified specialists is a challenging problem. Международный научный журнал «Научный импульс». № 3 (100), часть 1. Октябрь.
6. Axmadjanova, B. O. (2022, November). Bolalar nutqining rivojlanishida logopedik o‘yinlarning ahamiyati. In Conference Zone (pp. 311-314).
7. Н.А.Игнатченко. Актуальные проблемы коррекционной педагогики. Кубанский государственный университет. Краснодар, 2019 г.
8. Axmadjanova, B. O. (2022, December). Prospects of inclusive education. In Conference Zone (pp. 272-277).
9. Mirzoxid, B., Onaxon, B., & Mexribonu, A. (2023). Use of pedagogical technologies in improving the quality of education. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 1013-1018.
10. Бекмирзаев, А. Ш., Бекмирзаев, М. А., & Бекмирзаева, О. А. (2011). Ракобатбардош кадрлар тайёрлашнинг долзарб масалалари.“.
11. В.И.Селиверстов. “Игра в логопедической работе с детьми”, Москва, 1986.
12. А.П.Усова. “Роль игра в воспитании детей”, Москва, 1976.
13. К.Шодиева. “Мактабгача ёшдаги болаларни тўғри талаффузга ўргатиш”, Тошкент, 1995.
14. Ж.В.Хусанова. “Тўғри гапирайлик”, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1995.
15. Р.Т.Талипова. “Игра и речь”, Тошкент, 1974.
16. М.Ю.Аюпова. “Коррекцион ишлар методикасидан (логопедия)”, Тошкент, 2001.
17. Л.Р.Мўминова, М.Ю.Аюпова. “Логопедия”, Тошкент, 1993.
18. К.П.Беккер, М.Совак. “Логопедия”, Москва, 1981.
19. Р.Ш.Шомахмудов, Л.Р.Мўминова. “Боғча ва кичик мактаб ёшидаги болалар талаффузидаги нуқсонларни тузатиш”, Тошкент, 1981.
20. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-n/nutq-uz>